



O'ZBEK TILI DARSARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Oripova Mukambar Mirzaarabbayevna

Toshkent shahar Mirobod tumani

110- UDUM o'zbek tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7109482>

ARTICLE INFO

Received: 18TH September 2022

Accepted: 20TH September 2022

Online: 24th September 2022

KEY WORDS

Interaktiv metodlar, Ushinskiy pedagogika tizimi, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasi, sinkveyn usuli

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek tilini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish, darslarda og'zaki nutqni rivojlantirish usullari haqida so'z yuritiladi

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviyyuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish avvalo o'qituvchilar zimmasiga sharaflari va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurishyo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyatbarpoetishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Hozirgi paytda yuz

berayotgan globallashtirish jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Dunyo davlatlari orasida O'zbekiston Respublikasida birinchilardan bo'lib umumbashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir konseptual nazariy asoslar yaratildi va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Hozirgi paytda o'quvchilarning yuqori darajada og'zaki nutqini rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi o'quvni tashkil etishning maqbul shaklini izlash lozim.

Asosiy qism

Ushinskiy pedagogika tizimining asosiy yetakchi g'oyasi xalqona tarbiya g'oyasi hisoblanadi, bunda u har bir xalqning u



yashaydigan va mehnat qiladigan tarixiy, tabiiy shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xosligini tushunadi. Ushinskiy ona tili – xalqonalikning eng yaxshi ifodasi deb tan olgan hamda ta'lim va tarbiya ishida onatili asosiy o'rinni egallashi lozim, deb hisoblagan. K.D.Ushinskiy ona tilini birlamchi o'qitishning uchta asosiy maqsadlarini shakllantirgan:

I. So'z imkoniyatlarini rivojlantirish;

II. Bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish, bolalarni ona tilining boyligini egallashga jalb qilish.

III. Til qonunlarini, uning grammatikasini o'rganish.

Shunday ekan, nutqni rivojlantirishda asosiy e'tiborni dars jarayonida foydalanish zarur bo'lgan INTERAKTIV metodlar, innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalariga qaratish joiz. Ma'lumki, an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu

metodlarnig o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan xolda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan bazi bir treninglarga tavsifnoma berib, bazilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsiyanoma berib o'tamiz: "Tarmoqlar" metodi- o'quvchi t mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

Sinkveyn usuli. Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi. Sinkveyn-ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir.



Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi)

2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi.

(3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.(4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi).

Misol: Shaxs Serg'ayrat va baxtiyor. Izlanadi, fikr yuritadi, komillikka intiladi. Naqadar buyuk va murakkab mavjudot inson.

Insert usuli. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda

faollikni qo'llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir.O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi axborot

- - bilganlarimga zid keladi

? - meni o'ylantirib qo'ydi.

Yana bir usul kubiklar usuli. Kubiklar-o'zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir. Har tomonlamam fikrlashga (yozishga) yordam beradigan har xil yo'l-yo'riklar yozilgan kubik ishlatiladi. Tomonlarining hajmi o'rtacha 15-20 sm bulgan qutichaga qog'oz yopishtirib, kubik yasash mumkin. Kubikning har bir tomoniga quyidagi oltita yo'l-yo'riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, buni o'zaro bog'lanishini ko'rsating, buni tahlil qiling, buni qo'llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating (dalillar yordamida). O'tiladigan mavzu yoki biror tushuncha shu jadval savollari asosida tahlil qilib chiqiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinli. Inter faol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlik; o'quvchilarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shakllandi.

References:

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'z MU. 2003. - 66 b.
2. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. –T.: XTV RTM, 1999. -55 b.
3. Haydarova O.Q. Oliy pedagogik ta'limga texnologik yondashuv asoslari. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2006.
4. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prillsiplari va metodlari. - T.: .O'qituvchi " 1992.